




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DEPARTMENT OF PSYCHOLOGY AT THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

Mavluda Oqnazarova

Lecturer

Asian University of Technologies

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: National University of Uzbekistan, Department of Psychology, Scientific School, Pedagogical Psychology, Social Psychology, Applied Psychology, Master's Degree, Scientific Council, Doctoral Degree, Psychological Education, State Resolution, Personnel Training, International Cooperation.

Received: 19.05.25

Accepted: 21.05.25

Published: 23.05.25

Abstract: This article scientifically analyzes the establishment, stages of development, scientific and methodological potential of the Department of Psychology at the National University of Uzbekistan, and its place in the modern educational process. The historical formation of the Department of Psychology, the teaching staff, educational areas, and the content of master's programs are widely covered. The international cooperation of the Department, the activities of the Scientific Council, and the prospects for creating a scientific school through the expansion of basic doctoral quotas are also analyzed. The reforms carried out on the basis of Resolution No. 472 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and measures aimed at improving the quality of psychological education are in the focus of the article. The article serves as an important scientific source for studying and improving the processes of creating a national scientific school in the field of psychology.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA PSIXOLOGIYA KAFEDRASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Mavluda Oqnazarova

o'qituvchi

Osiyo texnologiyalar universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Milliy universiteti, psixologiya kafedrasи, ilmiy maktab, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, amaliy psixologiya, magistratura, ilmiy kengash, doktorantura, psixologik ta’lim, davlat qarori, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Milliy universitetida psixologiya kafedrasining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari, ilmiy-metakik salohiyati hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Psixologiya bo‘limining tarixiy shakllanishi, professor-o‘qituvchilar tarkibi, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura dasturlarining mazmun-mohiyati keng yoritilgan. Shuningdek, kafedraning xalqaro hamkorlik aloqalari, ilmiy kengash faoliyati va tayanch doktorantura kvotalarining kengaytirilishi orqali ilmiy maktab yaratish istiqbollari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 472-sonli qarori asosida olib borilgan islohotlar hamda psixologik ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar maqola markazida turadi. Maqola psixologiya sohasida milliy ilmiy maktab yaratish jarayonlarini o‘rganish va takomillashtirish uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

СТАНОВЛЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КАФЕДРЫ ПСИХОЛОГИИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА

Мавлюда Окназарова

Преподаватель

Азиатский технологический университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Национальный университет Узбекистана, кафедра психологии, научная школа, педагогическая психология, социальная психология, прикладная психология, магистратура, ученый совет, докторантуре, психологическое образование, государственное постановление, подготовка кадров, международное сотрудничество.

Аннотация: В статье с научной точки зрения анализируется становление кафедры психологии в Национальном университете Узбекистана, этапы ее развития, научный и метафизический потенциал, а также ее место в современном образовательном процессе. Подробно освещены история формирования кафедры психологии, профессорско-преподавательский состав, направления обучения и содержание магистерских программ. Также были проанализированы перспективы создания научной школы за счет международного сотрудничества кафедры, деятельности ученого совета, расширения базовых квот докторантов. В статье рассматриваются реформы, проводимые на основе Постановления

Кабинета Министров Республики Узбекистан № 472, и меры, направленные на повышение качества психологического образования. Статья служит важным научным ресурсом для изучения и совершенствования процессов создания национальной научной школы в области психологии.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan kechayotgan davrda inson omili, uning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy faolligini chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining zamонавиy bosqichida psixologiya fani nafaqat shaxsning ichki olami, balki davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan soha sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, psixologik bilimlarning shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli tobora ortib bormoqda.

Psixologik bilimlar bugungi kunda har bir insonning jamiyatdagi maqomi, ijtimoiy faolligi, kasbiy o‘zini anglashi va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yosh avlod vakillarining har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishi, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, o‘z hayotiga nisbatan mas’uliyatli yondashuvi ham psixologik tarbiyaning samarali yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liqdir. Shu boisdan, psixologiyaning dolzarbliги nafaqat ta’lim tizimida, balki ijtimoiy institutlar, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish, boshqaruv tizimlarida ham tobora ortib bormoqda.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, inson kapitaliga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi va bu jarayonda psixologiya fanining rivoji muhim o‘rin egalladi. Xususan, oliy ta’lim muassasalari qoshida psixologiya yo‘nalishlarining tashkil etilishi, ilmiytadqiqot institutlarida zamонавиy psixologik muammolarning o‘rganilishi bu sohaga strategik yondashuvni belgilab berdi.

O‘zbekiston Milliy universiteti psixologiya sohasi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlayotgan nufuzli ilmiy-ma’rifiy markazlardan biri hisoblanadi. Mazkur universitetda Psixologiya bo‘limi 1972-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u o‘z davrida nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududlari uchun psixolog-mutaxassislar tayyorlovchi yagona ilmiy maskan sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur bo‘lim ochilishi va uning ilmiy salohiyatini shakllantirishda professor Mahamad Vohidovich Vohidovning xizmatlari alohida e’tiborga loyiqidir. Uning rahbarligi ostida kafedra o‘zining ilmiy maktabini shakllantirib, zamонавиy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan holda fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borgan[1].

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Milliy universitetidagi Psixologiya bo‘limi yillar davomida ijtimoiy-psixologik muammolar, yoshlar psixologiyasi, shaxs taraqqiyoti, ta’lim

psixologiyasi kabi qator sohalarda yuqori malakali mutaxassislar, pedagog-psixologlar, tadqiqotchilarni tayyorlab berdi. Bo‘limda olib borilgan izchil ilmiy izlanishlar natijasida bir qator fundamental monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari va amaliy tavsiyalar chop etildi, psixologiya fanining rivojiga salmoqli hissa qo‘sildi.

O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida faoliyat yuritayotgan Psixologiya kafedrasini mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishida yetakchi o‘rin egallab kelmoqda. Mazkur kafedra o‘zining faoliyati davomida respublika va xorijdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash va boshqa muhim yo‘nalishlar uchun yuqori malakali psixolog-mutaxassislarni tayyorlab bergen.

1972-yilda tashkil etilgan psixologiya bo‘limi dastlab “Mantiq va psixologiya” nomi ostida faoliyat boshlagan bo‘lib, u 1976-yilga qadar Tarix fakulteti tarkibida faoliyat ko‘rsatgan. 1976-yildan boshlab esa “Psixologiya kafedrasи” sifatida alohida bo‘lim sifatida qayta tashkil etilgan. Bu davrda kafedraning ilmiy va metodik salohiyati mustahkamlanib, zamonaviy psixologiya yo‘nalishlarida izchil ilmiy izlanishlar olib borildi[2].

1990-yilga qadar kafedrani 800 nafarga yaqin yuqori malakali mutaxassislar muvaffaqiyatli tamomlagan. Ayniqsa, xorijiy davlatlar ehtiyojlari uchun tayyorlangan 150 dan ortiq mutaxassislar xalqaro miqyosda O‘zbekiston psixologiya maktabining yutuqlarini targ‘ib etishda muhim rol o‘ynagan.

2002–2010-yillar oralig‘ida kafedraga ijtimoiy psixologiya sohasi bo‘yicha taniqli olim, pedagog, psixologiya fanlari doktori G‘oziyev Ergash G‘oziyevich rahbarlik qilgan. Uning tashabbusi bilan kafedrada ijtimoiy va madaniy muhitni chuqur tahlil etuvchi tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilib, ijtimoiy psixologiya fanining amaliy jihatlari rivojlantirilgan. Shuningdek, kafedra qoshida hozirgi kunda psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy daraja (nomzodlik) himoyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan Ilmiy Kengash faoliyat yuritmoqda. Bu esa kafedraning ilmiy salohiyati va nufuzini yanada oshirgan muhim bosqich bo‘ldi.

Tahlil va natijalar: Bugungi kunda Psixologiya kafedrasida kadrlar tayyorlash quyidagi ta’lim bosqichlari va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilmoqda:

Bakalavriat bosqichi:

- Amaliy psixologiya – psixologik diagnostika, maslahat va korreksion faoliyatni o‘z ichiga oladi;
- Yoshlar psixologiyasi – yoshlik davriga xos psixologik xususiyatlar, ijtimoiy moslashuv, kasbga yo‘naltirish kabi yo‘nalishlar qamrab olinadi;
- Oilaliviy muammolar, o‘zaro munosabatlar, nikohga tayyorgarlik va oilaliviy inqirozlarni bartaraf etish psixologiyasi o‘rganiladi.

Bakalavriatda kunduzgi, sirtqi va kechki shakllar mavjud bo‘lib, bu ta’limning keng ommalashuvini ta’minlamoqda.

Magistratura bosqichi:

- 5A210201 – Umumiy psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) – turli kasbiy faoliyatlarda psixologik jarayonlarni tahlil qilish va optimallashtirish;
- 70310901 – Psixologiya (ijtimoiy psixologiya) – jamiyatdagi psixologik munosabatlar, guruh psixologiyasi va kommunikativ muammolar yechimini o‘rganish;
- 70310901 – Psixologiya (oilaviy munosabatlar) – nikoh va oila muammolarini psixologik tahlil qilish va maslahat berish;
- 70310901 – Psixologiya (umumiy psixologiya) – shaxs taraqqiyoti, idrok, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini chuqur tadqiq etishga yo‘naltirilgan[1].

Ushbu ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat bugungi kunda respublika miqyosida psixologik xizmatlarni zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etish, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va jamiyatda psixologik madaniyatni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida faoliyat yuritayotgan Psixologiya fanlari kafedrasi mamlakatimizda psixologik ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Kafedraga psixologiya fanlari doktori, professor Muxammedova Dilbar G‘afurjonovna rahbarlik qilmoqda. Uning ilmiy rahbarligi ostida kafedra zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha izchil faoliyat olib bormoqda.

Kafedra jamoasi umumiy hisobda 26 nafar professor-o‘qituvchidan iborat bo‘lib, ular orasida fan nomzodlari, fan doktorlari, dotsentlar va yosh izlanuvchilar mavjud. Bu tarkib o‘z salohiyati bilan nafaqat bakalavriat va magistratura bosqichlarida, balki ilmiy-tadqiqot va amaliy psixologik faoliyatda ham yuqori natijalarga erishmoqda.

Hozirgi kunda kafedrada:

- Bakalavriat bosqichi bo‘yicha talabalar turli yo‘nalishlarda (amaliy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, oila psixologiyasi) ta’lim olmoqda;
- Magistratura bosqichi bo‘yicha esa “umumiy psixologiya”, “ijtimoiy psixologiya” va “oilaviy psixologiya” mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda;
- Shuningdek, kafedra qoshida psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashgan Ilmiy Kengash faoliyat yuritmoqda. Ushbu kengashda ilmiy daraja olish istagidagi izlanuvchilar dissertatsiyalarini himoya qilish imkoniga ega.

Kafedraning xalqaro aloqalari ham izchil yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, qator xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy va akademik hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, talabalar almashinuvi dasturlari asosida o‘zbekistonlik talabalar xorijiy universitetlarda qisqa muddatli ta’lim olmoqda,

tajriba almashmoqda va xorijiy pedagogik metodlarni o'rganmoqda. Bu holat kafedra faoliyatining xalqaro standartlarga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tegishli qarorga asosan, O'zbekiston Milliy universitetining "Psixologiya" va "Sotsiologiya" kafedralari negizida O'zbekiston Davlat Psixologiya universiteti tashkil etilishi belgilandi. Ushbu qaror mamlakatda psixologik ta'lif va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, zamonaviy psixologiyaning barcha yo'naliishlarini milliy sharoitga moslashtirish hamda psixolog mutaxassislar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, bugungi kunda universitetlarning pedagogik yo'naliishlarida ta'lif olayotgan talabalar uchun pedagogik psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika va psixokorreksiya kabi fanlarni o'quv rejasiga kiritish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chunki aynan ushbu fanlar o'qituvchi kasbi uchun zarur psixologik kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy o'rinni egallaydi.

Afsuski, bugungi statistik ma'lumotlarga ko'ra, psixologiyaning mazkur muhim yo'naliishlari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'limgan pedagogik yo'naliish bitiruvchilarining 90 foizdan ortig'i mакtablarga o'qituvchi sifatida ishga joylashgan. Bu holat, o'z navbatida, ta'lif jarayonida psixologik yondashuvning etarlicha qo'llanmasligi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shuning uchun psixologik ta'lifni umumta'lif muassasalari va pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari dasturlarida chuqurlashtirish bugungi kunda ijtimoiy zaruratga aylangan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi psixologiya fanining rivoji va amaliyotdagি qo'llanilishini takomillashtirish borasida tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'naliishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda[4].

Mazkur normativ hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda, ilg'or xorijiy tajriba va milliy ehtiyojlarni inobatga olgan holda bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi. Jumladan:

- Oliy ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish choralari ko'rildi;

- Respublikaning chekka hududlarida amaliyotchi psixologlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab psixologiya ta’lim yo‘nalishiga maqsadli davlat granti asosida talabalarni qabul qilish mexanizmi joriy qilindi;

- Oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida psixologiya bo‘yicha mutaxassislik kvotalarini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha qo‘srimcha imkoniyatlar yaratildi.

Mazkur qaror psixologiya sohasidagi ilmiy-pedagogik salohiyatni kengaytirish, zamonaviy psixologik xizmat infratuzilmasini shakllantirish hamda ushbu sohaning amaliy yo‘nalishlarini ijtimoiy hayotga joriy etish imkonini bermoqda.

Shuningdek, qarorga muvofiq psixologlar ilmiy mакtabini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida, kelgusi yillarda tayanch doktorantura va doktoranturaga ajratiladigan qabul kvotalari sonini 30 foizga oshirish belgilandi. Bu esa respublikada ilmiy psixologik maktablarning kengayishiga, fundamental tadqiqotlar sonining ortishiga va yosh olimlarning ilmiy faolligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, qaror asosida psixologiya sohasida oliy pedagogik kadrlarni tayyorlash va amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab psixologiya ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalarida malakaviy amaliyot muddati 8 haftadan 15 haftagacha uzaytirildi. Bu o‘zgarish psixologiya bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning real amaliy sharoitda ko‘nikma hosil qilishi, ish jarayonini chuqur anglab yetishi va professional kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatini yaratmoqda.

Xulosa: Ushbu islohotlar O‘zbekiston ta’lim tizimi va psixologiya sohasida ilmiy-amaliy integratsiyani kuchaytirish, jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash va inson resurslarini samarali boshqarishda psixologik yondashuvlarni qo‘llashga xizmat qilmoqda. Psixologiya fanining bunday davlat siyosati darajasidagi e’tirofi uni nafaqat akademik soha, balki amaliy sohalarda ham strategik fan sifatida tan olishga asos yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy Universiteti joriy arxivi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida psixologiya o‘quv-ilmiy markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/uz/docs/3367425>
3. Egamberdiyeva D.A. Ergash G‘oziyev ilmiy merosining O‘zbekiston psixologiya fani tarqiyotidagi o‘rni. International scientific and practical conference VOLUME 2 | ISSUE 1. 2025 January. – P.209.
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2017 y., 09/17/775/0051-sod

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // <https://lex.uz/uz/docs/4367731>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // <https://regulation.gov.uz/uz/d/25665>

7. Begmatov A. Psixologianing boshqa sohalarga ta’siri va uni o‘rganishdagi kamchiliklar.

8. <https://www.gazeta.uz>